RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBINI AVTOMATLASHTIRISH	1206
Xusinov Ibragim Ismoilovich	
ЭВОЛЮЦИЯ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ ТУРЦИИ В КОНТЕКСТЕ ИНТЕГРАЦИИ В ГЛОБАЛЬНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЦЕПОЧКИ	1210
Солиев Абдумаджид Джабборович	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOTI.....	1215
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Boymuradov Normurod Abdusodikovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA MOLIVAVIY HIMOLA XIZMATLARI KO'RSATISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1220
G'aniyeva Nozima Alijon qizi	
ОЦЕНКА ПОТЕНЦИАЛА КЛАСТЕРИЗАЦИИ КОКОНОПЕРЕРАБАТЫВАЮЩИХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ШЕЛКОВОМ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА.....	1225
Ходжиматов Равшанбек Расулжанович	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLANISHINING XORIY TAJRIBASI	1231
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
TEMIR YO'L TRANSPORTI KORXONALARIDA MOLIVAVIY-IQTISODIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN KONTROLLING VOSITALARINI JORIY ETISH.....	1236
Kayumov Zafarbek Odil o'g'li	
BANK HR JARAYONLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1243
D. Djabbarova	
MEHNAT BOZORIDA NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH MEXANIZMLARI	1247
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
IJTIMOY XIZMATLAR TIZIMIDA DAVLAT VA NODAVLAT SEKTORINING O'ZARO ALOQASI HAMDA XORIYIY TAJRIBA TAHLILI.....	1251
Berdiyeva Nafisa Qahramonovna	
ПРИМЕНЕНИЕ КОНТРОЛЛИНГА В ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА	1257
Каюмов Зафарбек Одил угли	
BILVOSITA SOLIQLAR HISOBINI TASHKIL ETISHDA SOLIQ NAZORATINING AHAMIYATI	1263
Djalilov Rahmonkul Hamidovich	
INVESTITSION FAOLIYATNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING SANOAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	1268
Yuldoshev Sobir Fayzullayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINING TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINING TAQSIMOT TAHLILI.....	1272
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING XORIY TAJRIBASI.....	1277
Raxmatova Shaxnoza Rustamovna, Ochilova Dilnoza Ismoil qizi	
ФОРМИРОВАНИЯ УСТОЙЧИВОЙ ЗАНЯТОСТИ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ	1283
Б.С. Разакова	
ZAMONAVIY TURISTIK KLASSTERLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1289
Azim Pulatov	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR BANDLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI VA DAVLAT SIYOSATINING SAMARADORLIGI	1296
Qodirov Baxodirjon Shuhratovich	



YASHIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SANOAT KORXONALARINING ISHLAB CHIQUVISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AHAMIYATI	1302
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	
ONLAYN TA'LIM PLATFORMALARI INTERAKTIV CHATBOTLARI SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	1306
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Yusupova Asila Xidirqul qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN USLUBIYOTI	1313
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA IQTISODIY MUTANOSIBLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENSIYALARI	1320
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASHNI MOLIVAVIY MANBALARI	1327
Mansurov Mansur Alisherovich, Xolbekova Dilobarxon Rasuljon qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MONETAR SIYOSATNING TRANSMISSIYA MEXANIZMLARI SAMARADORLIGI	1330
Boltayeva Nilufar Shavkat qizi	
HUDUDII TURIZM RIVOJLANISHIDA BARQAROR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	1336
Barakayev Elbekjon Abdulla o'g'li	
O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMINI JORIY ETISH	1343
Yuldashev Kodirjon Mamadjanovich	
ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDA BOSHQARUV XODIMLARI QOBILIYATLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KORXONA SALOHIVATINI YUKSALTIRISH YO'LLARI	1348
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
INTEGRATSIYALASHGAN XARAJATLAR TAHLILI: ISHLAB CHIQARISH VA LOGISTIKA XARAJATLARINING MAHSULOT TANNARXIGA TA'SIRI	1353
Zokirjonov Asadbek Otabek o'g'li, Xashimova Zuhraxon Kahramonovna	
QASHQADARYO VILOYATI SANOATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNI EKONOMETRIK MODELAR YORDAMIDA BAHOLASH	1358
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALAR TA'MINOTIGA OTA-ONALAR TOMONIDAN HAQ TO'LASH VA UNDA FOYDALANISH TARTIBINING BUXGALTERIYA HISOBI	1361
Ro'ziboyev Oybek Baxromovich	
KICHIK BIZNESNING HUDUDII ISH BILAN BANDLIKKA TA'SIRI	1367
Qulmatov Alimjan Abdulloyevich	
INDUSTRIYA 4.0 SHAROITIDA KASBLAR TARKIBI TUZILMASI VA KOMPETENSIYALAR TRANSFORMATSIYASI	1371
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
RAQAMLI IDENTIFIKATSIYA (E-ID) TIZIMINING G'AZNACHILIK OPERATSIYALARIDA QO'LLANISH ISTIQBOLLARI	1375
Raximov Shaxzod Maxsudjanovich	
IQTISODIYOTNI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARINING INVESTITION FAOLIYATINI STRATEGIK RIVOJLANTIRISH	1380
Kasimova Nozima Omilovna	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE EFFECTIVE PERFORMANCE OF AN INDUSTRIAL ENTERPRISE IN THE CONTEXT OF INDUSTRY 4.0	1384
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
TEACHING PROGRAMMING COLLABORATIVELY THROUGH GOOGLE COLAB AND GITHUB INTEGRATION	1388
Saidova Difuza Ergashovna	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	1392
Djumayev Zayniddin Axmedovich	



ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА: КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА И КЛЮЧЕВЫЕ ОРИЕНТИРЫ	1397
Киличева Феруза Бешимовна	
ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНСТИТУЦИОННЫХ НОРМ О СОБСТВЕННОСТИ И ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СВОБОДЕ В УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА	1401
Абдуллаева Мавлюда Садыковна	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI INNOVATSION IQTISODIYOTDA QO'LLAB-QUVVATLASH STRATEGIYALARI.....	1407
Mirzaaxmedov Nodirbek Shavkatovich	
KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI TAHLIL QILISH VA MARKETING STRATEGIYASINI TANLASH	1414
Yoqubjonova Dildora Timur qizi	
TURISTIK XIZMATLAR BOZORINING XUSUSIYATLARI VA BRENDLASH IMKONIYATLARI	1420
Yusupova Moxinur Farxod qizi	
TA'LIM TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY AKTIVLARNI BOSHQARISH.....	1428
Meliboyev Ibroxim Mavlon o'g'li	
SOLIQ NAZORATINI TASHKIL ETISHDA XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTONGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI.....	1432
Kodirov Aqliddin Hakim o'g'li	
AVTOMOBIL SAVDOSIDA ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARINING QO'LLANILISHI	1437
Adamboyev Abror Akrom o'g'li, Akramov T.A.	
CHARM-POYABZAL KORXONALARIDA RESURSLARDAN MUQOBIL FOYDALANISH SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH	1443
Otaniyozov Orifjon Otaxonovich	
BANK KAPITALI YETARLILIGI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	1449
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	
SIRKULYAR IQTISODIYOTDA RESURS TANQISLIGINING OLDINI OLISH MASALALARI	1454
Ismoilova Gulchiroy Tolliboy qizi	
THE IMPACT OF DIGITAL PAYMENT SYSTEMS DEVELOPMENT ON THE BANKING SECTOR: A COMPARATIVE ANALYSIS OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES	1459
Aziza Farmonovna Ergasheva, Rustam Olimjonovich Oltinov	
ICHKI AUDIT VA UNING KORXONA NAZORAT TIZIMIDAGI O'RNI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1472
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RISK TURLARI VA KELIB CHIQISH OMILLARI	1477
Xamrokulov Sindor Qahramonovich	
O'ZBEKISTONDA TURISTLARGA OVQATLANISH XIZMATLARINI KO'RSATISHNI RIVOJLANTIRISHNING BOSHQARUV MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1483
Maxmadiyeva Charos Xayrullayevna	
TIJORAT BANKLARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING SAMARALI YO'LLARI.....	1487
Adilov Mirkomil Miralimovich	
BUDJET JARAYONIDA OCHIQLIK VA SHAFFOFLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARINING AMALDAGI HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	1494
Shernayev Akbar Aqmirzayevich	
KICHIK TADBIRKORLIK LOYIHALARINI MOLIVALASHTIRISHDA BANK KREDITLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI	1499
Norqobilova Nargiza Abdigodirovna	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARINING ISHTIROKI VA ULARDA MARKETING FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH	1504
Yuldashov Isomiddin Sidiqovich	
МАКРОЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОПТИМИЗАЦИИ НАЛОГОВЫХ ПОСТУПЛЕНИЙ И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ.....	1509
Муталова Дилором Махамаджановна, Хакимова Ситора Ильёсжон кизи	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI VA MEXANIZMLARI.....	1515
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
INNOVATSION FAOLIYATNI RAG‘BATLANTIRISHDA DAVLATNING O‘RNI.....	1518
Saitkamolov Muxammadxo‘ja Sobirxo‘ja o‘g‘li	
SOLIQ MA‘MURIYATCHILIGINING MOHIYATI VA UNING TADBIRKORLIK MUHITIDAGI O‘RNI.....	1521
Xurramov Azizbek Muxiddin o‘g‘li	
DETERMINATION OF SEED DAMAGE IN THE PNEUMATIC TRANSPORT SYSTEM BY CONDUCTING EXPERIMENTS	1527
Boltabayev Bekzod Egamberdiyevich	
GEOTAHLILIY YONDASHUV ASOSIDA DEHQON XO‘JALIKLARINING YER BILAN TA‘MINLANGANLIGINI BAHOLASH.....	1531
Axmatov Abutolibxon Ochilxon o‘g‘li	
DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING G‘AZNA IJROSIDA BIG DATA TAHLILIDAN FOYDALANISHNING SAMARASI.....	1535
Atajanov Murodbek Bekberganovich	
РОЛЬ И РАЗВИТИЕ КИБЕРПРАВА В ФИНТЕХ-ПРОЕКТАХ: ПРАВОВЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРИОРИТЕТЫ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА	1539
Мирзаев Шерзод Махматкулович	
KAMBAG‘ALLIK VA UNI TADRIJIY-NAZARIY KONSEPSIYALARI.....	1547
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
DAVLAT KORXONALARINI XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONIDA QIYMATNI ANIQLASH VA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASH MEXANIZMLARI	1554
Asomidinova Moxigulbonu Oybek qizi	
O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA HUDUDLARDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA MOLIVALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1560
Dovutov Faxriddin Javliyeich	
KICHIK KVADRATLAR METODIGA ALTERNATIV YANGI DIFFERENSIAL USULINI ISHLAB CHIQUISH VA UNING SAMARADORLIGI	1567
Ochilov Sherah Baratoich, Akramova Obida Qosimovna, Raximova Dilnoza Davronovna	
YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MUHITGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR.....	1581
Ibragimova Ma‘mura Muxiddinovna	
QISHLOQ XO‘JALIGIDA «YASHIL LOYIHALAR»NI INVESTITSIYALASH IMKONIYATLARI.....	1585
Nilufar Mengqobilovna Xudayberdieva	
FINANCIAL CONDITION OF THE ENTERPRISE AS OBJECT OF RESEARCH AND EVALUATION	1589
Ismailova Makhbuba Mirkhalilovna	
MAGNEZIAL BOG‘LOVCHI VA BAZALT TOLASI CHIQINDISI ASOSIDA KOMPOZITSION MATERIALLAR OLISH	1594
Rahimjon Jalilov Ravshanbek o‘g‘li, Orazimbetova Gulistan Jaksilikovna	
YASHIL INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODLARI: LCOE, CBA VA SDGS INDIKATORLARI ASOSIDA TAHLIL	1598
Kilicheva Kamola Muzaffarovna	
RESPUBLIKADA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MASALALARI	1603
Janzakov Bekzot Kulmamat o‘g‘li	
NAMANGAN VILOYATI OZIQ-OVQAT BOZORINING INSTITUTSIONAL SHAKLLANISHI VA QISHLOQ XO‘JALIGI TARMOQLARI BARQAROR O‘SISH SUR‘ATLARINI BAHOLASH	1611
Ismoilov Alisher Jobir o‘g‘li, Mirtoyev Axrorbek Abdulpattoevich	
MINTAQAVIY INVESTITSIYA-INNOVATSION JARAYONLARNI TARTIBGA SOLISH USULLARI.....	1618
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
O‘ZBEKISTONDA MAKRO IQTISODIY KO‘RSATKICHLARNI BARQARORLASHTIRISH YO‘LLARI.....	1624
Ulashev Xubbim Askarovich	
GERMANIYADA BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH MAQSADLARI	1629
Risqulov Ravshan Bekto‘raevich, Gaziyeva Sulxiya Saidmashrafvna	



O'ZBEKISTONNING DAVLAT SEKTORIDA IPSAS STANDARTLARINI JORIY ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	1633
Matrasul Yoqubov Mavlonberdiyevich, Qodirova Gulnoza Shavkatjon qizi	
MAMLAKATNING HUDUDIIY IQTISODIIY SIYOSATIDA BARQAROR HUDUDIIY RIVOJLANISHNING MAZMUNI VA KONSEPTUAL ASOSLARI	1637
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	
YOSHLAR TURIZMI: ZAMONAVIIY TENDENSIYALAR, RAQAMLI AVLOD EHTIYOJLARI VA INNOVATSION TAKLIFLAR MODELII	1644
Hamzayeva Difuza Samarovna	
HUDUDLAR TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINING RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASH INDEKSLARI ASOSIDA TOIFALARGA AJRATISH	1650
Matkarimov Komoliddin Jurabayevich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN QIMMATLI QOG'OZLAR CHIQARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	1655
Dilnozaxon Muxitdinova	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN QIMMATLI QOG'OZLAR CHIQUARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Dilnozaxon Muxitdinova

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar kafedrasida assistenti

E-mail: dilnozakhnmukhitdinova@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston tijorat banklari tomonidan qimmatli qog'ozlar, xususan aksiyalar va korporativ obligatsiyalar chiqarish amaliyotining hozirgi holati, mavjud muammolari va uni takomillashtirish yo'nalishlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda kapital tuzilmasi nazariyasining asosiy yondashuvlari – trade off, pecking order hamda bozor vaqtini tanlab moliyalashtirish konsepsiyalari va bank kapitali tuzilmasiga doir zamonaviy empirik izlanishlar umumlashtirilib, tijorat banklarining emissiya faoliyati bilan bog'liq holda sharhlanadi. Shuningdek, O'zbekiston korporativ obligatsiyalar bozori rivojlanishining bosqichlari, ichki qarz bozorida davlat obligatsiyalari ulushining yuqoriligi va tijorat banklari obligatsiyalarining hozircha cheklangan o'rni asoslab beriladi. Muallif tomonidan banklar uchun emissiya strategiyasini milliy kapital bozorining chuqurlashuvi, Markaziy bankning REPO siyosati, soliq rag'batlari va reyting infratuzilmasi bilan integratsiya qilgan holda takomillashtirish bo'yicha kompleks takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, qimmatli qog'ozlar, aksiyalar, korporativ obligatsiyalar, emissiya amaliyoti, kapital tuzilmasi, kapital bozori, REPO operatsiyalari, moliyaviy barqarorlik, investorlar bazasi.

Abstract. The article analyzes the current state, challenges, and improvement directions of securities issuance practices particularly shares and corporate bonds by commercial banks in Uzbekistan. The study summarizes the main approaches of capital structure theory, including the trade-off, pecking order, and market timing concepts, along with recent empirical research on bank capital structure, and interprets them in relation to the issuance activities of commercial banks. The development stages of Uzbekistan's corporate bond market, the dominant share of government securities in the domestic debt market, and the still limited role of commercial banks' bonds are examined in detail. The author proposes a comprehensive set of recommendations for designing an effective issuance strategy aligned with the deepening of the national capital market, the Central Bank's REPO policy, tax incentives, and the development of rating infrastructure.

Key words: commercial banks, securities, shares, corporate bonds, issuance practice, capital structure, capital market, REPO operations, financial stability, investor base.

Аннотация. В статье анализируются современное состояние, проблемы и направления совершенствования практики выпуска ценных бумаг, в частности акций и корпоративных облигаций, коммерческими банками Узбекистана. В исследовании обобщены основные подходы теории структуры капитала – концепции trade off, pecking order и тайминга рынка, а также современные эмпирические исследования по структуре банковского капитала, которые интерпретируются в контексте эмиссионной деятельности коммерческих банков. Также раскрываются этапы развития рынка корпоративных облигаций Узбекистана, высокая доля государственных ценных бумаг на внутреннем долговом рынке и ограниченная роль облигаций коммерческих банков. Автором разработаны комплексные предложения по формированию эффективной эмиссионной стратегии банков с учетом углубления национального рынка капитала, политики РЕПО Центрального банка, налоговых стимулов и развития рейтинговой инфраструктуры.

Ключевые слова: коммерческие банки, ценные бумаги, акции, корпоративные облигации, эмиссионная практика, структура капитала, рынок капитала, операции РЕПО, финансовая устойчивость, база инвесторов.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston bank tizimi jadal sur'atlarda transformatsiya qilinib, tijorat banklari faoliyatini bozor mexanizmlariga moslashtirish, resurs bazasini diversifikatsiyalash va kapital yetariligidini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Amaldagi qonunchilik tijorat banklari ustav kapitali, jalb qilingan depozitlar, xalqaro moliya institutlari kreditlari bilan bir qatorda qimmatli qog'ozlar emissiyasini ham resurs bazasini shakllantirishning muhim manbai sifatida e'tirof etadi.



An'anaviy ravishda respublikada tijorat banklari resurs bazasining asosiy qismi jismoniy va yuridik shaxslarning depozitlari, Markaziy bank resurslari hamda davlat kafolatli tashqi qarzlar hisobidan shakllanib kelmoqda. Biroq kapital bozorining chuqurlashuvi va korporativ sektorning uzoq muddatli resurslarga bo'lgan ehtiyoji ortib borayotgan sharoitda banklar tomonidan qimmatli qog'ozlar – aksiyalar, oddiy va subordinatsiyalangan korporativ obligatsiyalar, depozit sertifikatlari, bank veksellari va boshqa instrumentlar emissiyasini kengaytirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Korporativ obligatsiyalar bozorining dastlabki bosqichlarida emissiya hajmlari kichik bo'lib, qimmatli qog'ozlar bozorida asosan qisqa muddatli, likvidligi past instrumentlar ustun bo'lgan. Bugungi kunda ham ichki qarz bozorida davlat obligatsiyalari ulushi yuqori bo'lib, tijorat banklari obligatsiyalarining bozordagi real ulushi hali cheklangan. Shunga qaramay, ayrim yirik tijorat banklari obligatsiyalar emissiyasi bo'yicha amaliy tajriba to'plab, ustav kapitali va uzoq muddatli resurslar bazasini mustahkamlash yo'lida sezilarli qadamlar tashlamoqda.

Tadqiqot maqsadi – O'zbekiston tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar emissiyasining nazariy va amaliy asoslarini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda emissiya amaliyotini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar emissiyasi bilan bog'liq moliyaviy operatsiyalari, predmeti sifatida esa bank kapital tuzilmasida qimmatli qog'ozlar ulushi, emissiya strategiyasi, normativ-huquqiy baza, bozor infratuzilmasi va investorlar bazasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik qaraladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kapital tuzilmasi bo'yicha klassik trade-off nazariyasi Kraus va Litzenberger (1973) tomonidan ishlab chiqilib, moliyalashtirish qarorlarida qarzdan foydalanishning soliq afzalliklari bilan bankrotlik va moliyaviy qiyinchilik xarajatlari o'rtasidagi muvozanatga urg'u beradi. Ushbu yondashuvga ko'ra, firma (shu jumladan bank) uchun "optimal" qarz–aksiyalar nisbatini aniqlash mumkin, bunda qo'shimcha qarz birligining soliq bo'yicha chegirma shaklidagi foydasi moliyaviy qiyinchiliklar xavfi oshishidan kelib chiqadigan kutilayotgan yo'qotishlar bilan muvozanatlanadi.

Pecking order nazariyasi esa Myers hamda Shyam-Sunder va Myers tadqiqotlarida ishlab chiqilib, firmalar moliyalashtirishda ichki manbalarga (taqsimlanmagan foyda) ustuvorlik berishi, zarurat tug'ilgandagina qarz, eng oxirgi navbatda esa aksiyalar emissiyasiga murojaat qilishini ta'kidlaydi. Ushbu nazariyaga ko'ra, emissiya qarorlari asosan axborot assimetriyasi va tranzaksiya xarajatlari bilan izohlanadi.

Graham (2000) korporatsiyalar, jumladan, yirik kompaniyalarning qarzdan foydalanishi natijasida olinadigan soliq afzalliklarining miqdoriy bahosini beradi va qarzga asoslangan moliyalashtirish orqali firmalar qiymatini sezilarli ravishda oshirish mumkinligini ko'rsatadi. Baker va Wurgler (2002) tomonidan taklif etilgan bozorni "timing" qilish nazariyasi esa firmalar qimmatli qog'ozlar emissiyasi vaqtini aksiyalar va obligatsiyalar bozori kon'yunkturasiga qarab tanlashi, ya'ni bozor baholari yuqori bo'lgan davrda aksiyalar, foiz stavkalari qulay bo'lgan davrda esa qarz instrumentlarining emissiyasini afzal ko'rishini ta'kidlaydi; bu esa kapital tuzilmasiga uzoq muddatli ta'sir ko'rsatadi.

Banklar kapital tuzilmasiga oid tadqiqotlarda Gropp va Heider (2009) kabi mualliflar yirik AQSh va Yevropa banklari ma'lumotlari asosida klassik korporativ moliya nazariyalari bank sektorida ham ma'lum darajada amal qilishini empirik isbotlaydilar. Ularning tadqiqotlari natijalariga ko'ra, banklar uchun ham o'lcham, rentabellik, aktivlar tarkibi, bozor–kitob qiymati nisbatlari kabi omillar kapital tuzilmasini belgilovchi muhim determinantlardir. Boshqa tadqiqotlarda (masalan, Gutiérrez Pons va hammualliflar, 2019) rivojlanayotgan bozorlar sharoitida kapital tuzilmasiga milliy moliya bozorlarining rivojlanganlik darajasi, inflyatsiya, foiz stavkalari va hukumat siyosati kabi makro omillar kuchli ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi.

Tijorat banklari emissiya operatsiyalari bo'yicha xorijiy adabiyotlarda aksiyalar va bank obligatsiyalari bozorining rivojlanishi, subordinatsiyalangan qarz instrumentlarining kapital yetarliligi koeffitsientlariga ta'siri, Basel talablari bilan uyg'unlashuvi keng yoritilgan. Shu bilan birga, rivojlanayotgan kapital bozorlarida bank obligatsiyalari, depozit sertifikatlari va boshqa qimmatli qog'ozlar emissiyasi ko'pincha investorlar bazasining torligi hamda huquqiy tartibga solishdagi noaniqliklar tufayli sekin rivojlanayotgani qayd etiladi.

O'zbekiston bo'yicha olib borilgan ishlanmalar orasida emissiya operatsiyalarining samaradorligini baholash, korporativ obligatsiyalar bozorini rivojlantirish, tijorat banklari emissiya siyosatini takomillashtirishga bag'ishlangan maqola va monografiyalar alohida o'rin tutadi. Xususan, Abduqayumov A.A. va boshqa mahalliy olimlar tomonidan tijorat banklari emissiya operatsiyalarining maqsadlari – kapital bazasini mustahkamlash, uzoq muddatli investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, likvidlik muammolarini hal etish va bozor raqobatbardoshligini oshirish bilan bog'liq jihatlar batafsil tahlil qilingan.

Milliy huquqiy baza nuqtai nazaridan "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-163, keyinchalik yangi tahrirda – O'RQ-387) emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishi va ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish



tartibini belgilaydi; “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun esa tijorat banklari tomonidan qimmatli qog‘ozlar emissiyasini bank kapitalini shakllantirishning muhim instrumenti sifatida e’tirof etadi; “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun aksiyadorlarning huquqlarini kafolatlash orqali emissiya jarayonlarida korporativ boshqaruvning shaffofligini ta’minlashga qaratilgan.

So‘nggi yillarda Markaziy bank tomonidan korporativ obligatsiyalarni REPO operatsiyalarida ta’minot sifatida qabul qilish hamda ayrim emitentlarning obligatsiyalarini yuqori likvidli aktivlar ro‘yxatiga kiritish bo‘yicha qarorlar qabul qilinishi bozor infratuzilmasini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Biroq adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklari emissiya amaliyotini aynan kapital tuzilmasi nazariyalari, makro-moliya sharoitlari va O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorining o‘ziga xos xususiyatlari uyg‘unligida tizimli o‘rgangan ilmiy ishlar yetarli emas.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, normativ-huquqiy tahlil, tendensiyalar tahlili va ekspert baholash metodlaridan foydalanildi. Asosiy ma’lumotlar manbai sifatida Markaziy bank, investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha vakolatli organlar, tijorat banklarining yillik hisobotlari, fond birjasi statistikasi hamda xalqaro ma’lumot bazalari ma’lumotlari jalb etildi.

Birinchidan, normativ-huquqiy tahlil orqali qimmatli qog‘ozlar bozoriga, banklar faoliyatiga, aksiyadorlik jamiyatlari va investorlar huquqlariga oid qonun va me’yoriy hujjatlar o‘rganildi. Ikkinchidan, ochiq statistik ma’lumotlar asosida tijorat banklarining resurs bazasi tuzilmasi, obligatsiyalar emissiyasi hajmlari va dinamikasi tahlil qilindi. Uchinchidan, O‘zbekiston tajribasi ayrim rivojlanayotgan davlatlar kapital bozorlaridagi tendensiyalar bilan qiyoslandi.

Ma’lumotlar ochiqligi va massiv darajasidagi cheklovlar sababli murakkab ekonometriyaviy model qurish emas, balki tizimli-qiyosiy tahlil orqali keyinchalik chuqurlashtiriladigan konseptual model hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga urg‘u berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston tijorat banklarining resurs bazasida depozitlar, Markaziy bank kreditlari va xalqaro moliya institutlari resurslari ustun bo‘lib, qimmatli qog‘ozlar emissiyasi orqali jalb etilgan mablag‘lar ulushi nisbatan oz hisoblanadi. Ayrim yirik banklar tomonidan amalga oshirilgan yirik obligatsiyalar emissiyasi ichki bozorda muhim tajriba sifatida namoyon bo‘lgan.

Quyidagi jadval ayrim tijorat banklarining obligatsiyalar emissiyasi bo‘yicha ma’lumotlarni umumlashtiradi. Jadvalda keltirilgan ma’lumotlar ochiq manbalardagi hisobotlar asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan bo‘lib, banklarning emissiya strategiyasi va instrumentlar xilma-xilligini ko‘rsatib beradi.


1-jadval. Tijorat banklarining korporativ obligatsiyalar emissiyasi (umumlashtirilgan ma’lumotlar)

Bank	Emissiya turi	Emissiya sanasi (oy/yil)	Valyuta	Nominal hajm	Kupon stavkasi (yillik)	Muddati / qaytarish sanasi	Joylashtirish bozori
Sanoat qurilish bank (SQB)	Xalqaro obligatsiya (Eurobond)	12.2019	USD	300 mln	5,75 %	12.2024	London Stock Exchange (RegS)
Sanoat qurilish bank (SQB)	Barqarorlik obligatsiyasi (Sustainability Bond, USD tranche)	07.2024	USD	400 mln	8,95 %	07.2029	London Stock Exchange (barqarorlik segmenti)
Sanoat qurilish bank (SQB)	Barqarorlik obligatsiyasi (mahalliy valyuta tranche)	07.2024	UZS	2,5 trln	21,0 %	2027	Xalqaro investorlar uchun UZS-denominatsiyalangan Eurobond
Ipoteka bank	Xalqaro obligatsiya (Eurobond)	11.2020	USD	300 mln	5,50 %	11.2025	London Stock Exchange (RegS)



Ipoteka bank	Xalqaro obligatsiya (UZS Eurobond)	04.2021	UZS	785 mlrd	16,0 %	04.2024	Vienna Stock Exchange (Vienna MTF)
Ipoteka bank	Xalqaro obligatsiya (UZS Eurobond)	04.2024	UZS	1,4 trln	20,5 %	04.2027	Vienna Stock Exchange (Vienna MTF)
O'zbekiston Milliy banki (NBU)	Xalqaro obligatsiya (Eurobond)	10.2020	USD	300 mln	4,85 %	10.2025	London Stock Exchange (RegS)
O'zbekiston Milliy banki (NBU)	Dual-currency Eurobond (USD tranche)	07.2025	USD	300 mln	7,20 %	2030	Vienna MTF
O'zbekiston Milliy banki (NBU)	Dual-currency Eurobond (UZS tranche)	07.2025	UZS	1,5 trln	17,95 %	2028	Vienna MTF

1-jadval ma'lumotlari tijorat banklarida emissiya amaliyoti birinchi navbatda yirik banklar tasarrufida to'planganini ko'rsatadi. Subordinatsiyalangan obligatsiyalar kapital yetariligini oshirishda, yirik so'm va xorijiy valuta emissiyalari esa uzoq muddatli likvidlikni ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda. Biroq kichik va o'rta banklar uchun emissiya jarayonining murakkabligi, xarajatlarning yuqoriligi va bozor likvidligining cheklanganligi sabab bu instrumentlardan foydalanish imkoniyatlari yetarli darajada safarbar etilmagan.



1-rasm. Tijorat banklarining chiqarilgan qimmatli qog'ozlari (issued securities) hajmi, mlrd so'mda, 2024 va 2025-yillar 1-noyabr holatiga


Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yil 1-noyabr holatida tijorat banklarining chiqarilgan qimmatli qog'ozlari hajmi 29 656 mlrd so'mni tashkil etib, majburiyatlar tarkibida 4,6 foiz ulushga ega bo'lgan. 2025-yil 1-noyabr holatida esa ushbu ko'rsatkich 36 496 mlrd so'mga yetib, ulush 4,9 foizgacha oshgan. Muallif nuqtai nazaridan, bu tendensiya tijorat banklari emissiya amaliyoti bosqichma-bosqich faollashib borayotganini, biroq hali resurslar tuzilmasida nisbatan kichik ulushni egallayotganini ko'rsatadi.



2-jadval. Tijorat banklari emissiya amaliyotini takomillashtirish bo'yicha asosiy yo'nalishlar

Normativ huquqiy islohotlar	Emissiya prospektini ro'yxatdan o'tkazish tartibini soddalashtirish, kichik hajmli emissiyalar uchun yengillashtirilgan prospekt institutini joriy etish, bank obligatsiyalari va subordinatsiyalangan qarz instrumentlariga oid normalarni aniq belgilash.
Soliq rag'batlari	Bank obligatsiyalari bo'yicha foiz daromadlariga nisbatan imtiyozli soliq stavkalarini joriy etish, institutsional investorlar uchun bank obligatsiyalarini imtiyozli aktivlar sifatida tan olish.
Bozor infratuzilmasi	REPO operatsiyalarida bank obligatsiyalarini kengroq qabul qilish, market-meykerlar institutini rivojlantirish, savdo va kliring mexanizmlarini takomillashtirish.
Bank ichki siyosati	Emissiya siyosatini bankning umumiy risk-menejment va aktiv-passivlarni boshqarish tizimi bilan integratsiyalash, investorlar bilan aloqalar bo'limlarini kuchaytirish, reyting agentliklari bilan tizimli ishlash.
Investorlar bazasi	Pensiya jamg'armalari, sug'urta kompaniyalari va investitsiya fondlari uchun bank qimmatli qog'ozlariga investitsiya kiritish imkoniyatlarini kengaytirish, aholi moliyaviy savodxonligini oshirish.

Jadvalda keltirilgan yo'nalishlar kompleks yondashuvni talab qiladi. Faqat normativ huquqiy baza o'zgartirilishi yetarli emas, agar bozor infratuzilmasi, soliq rag'batlari va investorlar bazasi bilan birgalikda rivojlantirilmasa, emissiya amaliyoti kutilgan natijani bermaydi. Ayniqsa, REPO mexanizmlarida bank obligatsiyalarining kengroq qabul qilinishi va institutsional investorlarning faol ishtiroki bozorda likvidlikni ta'minlaydi.



2-rasm. Tijorat banklari majburiyatlari (resurs bazasi) tuzilmasi, ulushlarda, 1-noyabr 2025-yil holatiga

Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil 1-noyabr holatida tijorat banklari majburiyatlari tuzilmasida depozitlar 50,5 foiz, kredit va lizing bo'yicha majburiyatlar 33 foiz, chiqarilgan qimmatli qog'ozlar 5,5 foiz, subordinatsiyalangan qarzlar 1,8 foiz, boshqa majburiyatlar esa 3 foiz atrofini tashkil etadi. Qimmatli qog'ozlar ulushining nisbatan pastligi kapital bozorining hali to'liq chuqurlashmaganini aks ettiradi, biroq so'nggi yillarda emissiya hajmlarining o'sishi ushbu ulushning kelgusida bosqichma-bosqich ortishini kutish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar chiqarish amaliyoti, ayniqsa korporativ obligatsiyalar emissiyasi so'nggi yillarda faollashgan. Ayrim yirik banklar tajribasi bank obligatsiyalari ustav kapitalini mustahkamlash, uzoq muddatli investitsiya loyihalarini moliyalashtirish hamda resurs bazasini diversifikatsiyalashda samarali vosita bo'lishi mumkinligini amalda tasdiqlamoqda.



Kapital tuzilmasi nazariyalari – trade-off, pecking order va market timing yondashuvlari banklar uchun ham dolzarb bo'lib, qarz va aksiyalar emissiyasi o'rtasidagi tanlovni soliq afzalliklari, bankrotlik xavfi, axborot assimetriyasi, bozor kon'yunkturasi va regulativ talablar bilan kompleks muvozanatlash zarurligini ko'rsatadi. Emissiya amaliyotini takomillashtirish uchun normativ-huquqiy baza, soliq tizimi, bozor infratuzilmasi va banklarning ichki siyosati bir butun tizim sifatida ko'rib chiqilishi lozim.

Tijorat banklarining emissiya amaliyotini rivojlantirish uchun quyidagi shartlar majmuasi zarur: emissiya jarayonini tartibga soluvchi me'yorlarni soddalashtirish va prognoz qilinadigan qilish, soliq siyosatida bank obligatsiyalarini rag'batlantiruvchi aniq mexanizmlarni joriy etish, REPO va ikkilamchi bozor infratuzilmasini rivojlantirish, banklarning ichki emissiya strategiyasini risk-menejment va ALM tamoyillari bilan uyg'unlashtirish, institutsional va chakana investorlar bazasini kengaytirish. Mazkur shartlar izchil amalga oshirilgan taqdirda, tijorat banklari tomonidan qimmatli qog'ozlar chiqarish amaliyoti nafaqat banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, balki O'zbekiston kapital bozorini chuqurlashtirish va real sektor loyihalarini uzoq muddatli moliyalashtirishning muhim manbai sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Kraus A., Litzenberger R. H. A State Preference Model of Optimal Financial Leverage // Journal of Finance. 1973. Vol. 28. No. 4. P. 911-922.
2. Graham J. R. How Big Are the Tax Benefits of Debt? // The Journal of Finance. 2000. Vol. 55. No. 5. P. 1901-1941.
3. Baker M., Wurgler J. Market Timing and Capital Structure // The Journal of Finance. 2002. Vol. 57. No. 1. P. 1-32.
4. Gropp R., Heider F. The Determinants of Bank Capital Structure. Frankfurt am Main: European Central Bank, 2009. 48 p. (ECB Working Paper No. 1096).
5. Gutiérrez Ponce H. va boshq. Determinants of Capital Structure: An Empirical Study of the Manufacturing Sector // Contaduría y Administración. 2019. Vol. 64. No. 2. P. 1-23.
6. Serrasqueiro Z., Nunes P. Trade-Off Theory versus Pecking Order Theory: Capital Structure Decisions in a Peripheral Region of Portugal // Journal of Business Economics and Management. 2015. Vol. 16. No. 2. P. 445-466.
7. Shyam-Sunder L., Myers S. C. Testing Static Trade-Off Against Pecking Order Models of Capital Structure // Journal of Financial Economics. 1999. Vol. 51. No. 2. P. 219-244.
8. Abduqayumov A. A. Analysis of Issuance Operations of Commercial Banks in Uzbekistan's Securities Market // American Journal of Economics and Business Management. 2025. Vol. 8. No. 1. P. 55-68.
9. Rasulov K. Issuance of Corporate Bonds by Commercial Banks. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2018. 210 b.
10. Expansion of Issuance Activities of Commercial Banks in the Securities Market // International Journal of Economics, Finance and Sustainable Development. 2021. Vol. 3. No. 4. P. 75-89.
11. O'zbekiston Respublikasi. Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida Qonun (yangi tahrir). Toshkent, 2015.
12. O'zbekiston Respublikasi. Banklar va bank faoliyati to'g'risida Qonun. Toshkent, 1996.
13. O'zbekiston Respublikasi. Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida Qonun. Toshkent, 1996.
14. Bonds in Uzbekistan // Invest in Uzbekistan. Rasmiy veb-sayt. Murojaat sanasi: 29.11.2025.
15. Uzbekistan: Bonds, Indices, Credit Ratings // CBonds.com. Murojaat sanasi: 29.11.2025.
16. Corporate Bonds Now Eligible in Uzbek Repo Operations // Kursiv Media. 2025.
17. JSCB Kapitalbank. Fixed-Income Securities // Rasmiy veb-sayt. Murojaat sanasi: 29.11.2025.
18. Market Review Reports 2024–2025 // SQB (Uzbek Industrial and Construction Bank). Rasmiy investitsion sharhlar.
19. Local Debt Instruments // Ipoteka-bank rasmiy veb-sayti. Murojaat sanasi: 29.11.2025.
20. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimiga oid statistik ma'lumotlar. Rasmiy veb-sayt.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
